

## YOLG'IZLIK ADABIY MOTIV SIFATIDA

**Kamolova Majnuniso Ulug'bek qizi**

QarDU 1-kurs daktarant

[majnunisok@gmail.com](mailto:majnunisok@gmail.com)[kamolovamajnuniso@gmail.com](mailto:kamolovamajnuniso@gmail.com)[+998914544979](tel:+998914544979)

UDK 894.375-1(021)

ORCID 0009-0004-4798-4139

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada Yolg'izlik tushunchasining avvalo umumiy ma'no-mazmuni sharhlanib, psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan qanday qarashlar mavjud ekanligiga alohida to'xtalangan. Shuningdek, asosan, adabiy muhitda Yolg'izlikning motiv sifatidagi o'rnini ochib berishga harakat qilingan.

Shu bilan birga, Yolg'izlik adabiy motiv sifatida ko'plab asarlarda insonning ichki kechinmalari, jamiyatdan ajralganligi, ruhiy iztiroblari yoki o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bu motiv orqali adiblar inson tabiatining chuqur qatlamlarini ochib berishga uringanlar. Yolg'izlik aslida nafaqat ijtimoiy hodisa, balki inson ruhiyatining murakkab holatlarini ifodalovchi badiiy vosita bo'lib, u orqali yozuvchilar o'z davrining muammolarini, insoniy qadiyatlarni, hayot mazmunini yoritib beradilar. Tadqiqotda esa Yolg'izlik motivi xususida alohida qarashlar bilan yoritilgan.

**KALIT SO'ZLAR.** Yolg'izlik, motiv, iztirob, ruhiyat, inson, qadriyat, psixologiya, qatlam.

**ANNOTATION.** This article first of all comments on the general meaning of the concept of Loneliness, and specifically focuses on what views there are from a psychological and social point of view. Also, an attempt is made to reveal the place of Loneliness as a motif in the literary environment.

At the same time, Loneliness as a literary motif is described in many works in connection with a person's inner experiences, separation from society, mental suffering or the process of self-awareness. Through this motif, writers have tried to reveal the deep layers of human nature. Loneliness is actually not only a social phenomenon, but also an artistic means expressing complex states of the human psyche, through which writers illuminate the problems of their time, human ideals, and the meaning of life. The study sheds light on the Loneliness motif with special views.

**KEYWORDS.** Loneliness, motif, suffering, psyche, person, value, psychology, layer.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье сначала рассматривается общее значение и содержание понятия одиночества, особое внимание уделяется

(3rd international scientific and practical conference)

взглядам, существующим с психологической и социальной точки зрения. Также была предпринята попытка выявить место мотива Одиночества в литературной среде.

В то же время одиночество как литературный мотив во многих произведениях изображается в связи с внутренними переживаниями человека, изоляцией от общества, душевными терзаниями или процессом самореализации. С помощью этого мотива писатели пытались раскрыть глубинные пласты человеческой натуры. Одиночество на самом деле является не только социальным явлением, но и художественным средством, выражающим сложность человеческой психики, посредством которого писатели освещают проблемы своего времени, человеческие идеалы и смысл жизни. Исследование также проливает свет на мотив одиночества с другой точки зрения.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** Одиночество. мотив, страдание, психика, человек, ценность, психология, слой.

**KIRISH.** Xilvat soʻzining lugʻaviy maʼnosiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, u avvalo *xoli, xoli joy, kimsasiz joy, tanholik, hech nimaga bogʻlanmaslik va dunyoning xilma-xil gʻavgʻolaridan forigʻlik* kabi bir qator maʼnolarda keladi. Xilvatning tasavvufiy maʼnosi quyidagicha: dunyoviy bogʻlanishlardan hosil boʻladigan maʼnaviy toʻsiqlardan oʻtish va koʻngilni ilohiy maʼrifat yoʻlida sobitqadam etmoq uchun yolgʻizlikni ixtiyor etib, pining rahnamoligida ibodat va riyozat bilan shugʻullanish. Xilvat quyidagi tushunchalar bilan bevosita maʼno-mazmunan bogʻliq: *uzlat, tafrid, tajrid, inzivo, eʼtikof, xalq bilan ixtilot(aralashish)nit ark etish, tarki dunyo, tavhid, Vahdat.*

Ushbu tushunchalarning deyarli barchasi “Yolgʻizlik” tushunchasini toʻldirib turishga xizmat qiladi. Xususan, Uzlat– xilvat demakdir. Mashhur soʻfiy Basriy shunday degan: “Tavrotddan yod olgan kalimalari mana shular edi: “Inson farzandi qanoat etdi– badavlat boʻldi. Xilvatga chekindi– salomat boʻldi...” Uzlat, xilvat va bularning foydasi haqida boshqa muqaddas kitoblarda ham bir qator fikrlar bor. Demak, Yolgʻizlik motivi Qurʼon, Hadisi sharifdan boshlab hozirgi adabiy muhitga qadar oʻz aksini koʻrsatib keladi.

Yolgʻizlik tushunchasi haqida hanuzgacha bizda notoʻgʻri va biryoqlama fikr davom etib keladi. Din va tasavvuf zinhor hayotni batamom xilvatda oʻtkazishni targʻib etmagan. Uzlat– hayotdan qochish, turmushdan ajralish, odamlardan bezish ehtiyoji emas, balki maʼlum muddat “kasbi kamol va sayri jamol” aylagandan soʻng ruhiy kamolot ila yana faoliyatda boʻlmoqdir.

Xilvat sharti boʻyicha, inson tanholik goʻshasiga berkinar ekan, u “Boshqalar mening yomonligim va gunohimdan forigʻ boʻlsinlar”, deya niyat qilmogʻi shart

sanalgan. Aksincha, “Men odamlarning sharorat va gunohlaridan xalos bo‘lurman”, degan xayolga borsa, u kibr-u havoga berilgan hisoblangan.<sup>1</sup>[1.227]

Imom G‘azzoliy: “Xilvat mag‘lubiyatlardan qutultiradigan, ko‘z va quloqni muhofaza qiladigan eng go‘zal parda erur”, deganar. Ibn Arabiyning yozishicha, “Alloh taolo hazratlarining ne‘matlari ziyoda bo‘lishini istagan, asrori ilohiya va Haqning jo‘mardlik xazinalaridan mavjudotdagi nomutanohiy (chehsiz, bitmas-tuganmas) sirlarning tajalliysiga talabgor bo‘lgan kishi, albatta, xilvatga kirishi va zikrulloh aylashi shart”. Chunki xilvat insonga tuban va chi rkin qiliq hamda harakatlardan xalos bo‘lmoq uchun keng imkon yaratadi. Xilvatga chekinmoq–til va dilni ofatlardan asramoq, ko‘ngilga ziyinat, vujudga osoyish bermoq, tafakkur va muroqaba chegaralarini behad kengaytirmoq demak.

Yolg‘izlikning adabiy motiv sifatidagi ko‘rinishini xoh Navoiydan oling, xoh boshqa adiblardan, baribir uni tasavvufiy ma’nolarsiz sharhlab bo‘lmaydi. Tasavvuf deganda esa yaqqol Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” asari ko‘z oldimizga kelaveradi. Najmiddin Komilovning yozishicha: “Mutlaq tarki dunyo hayotga zid–u insonni amaldan, kasb-u kordan mahrum etadi. Shu kabi dunyoparastlik ham kishini ilohiylikdan, ma’naviyatdan chetlashtiradi, mol-dunyo quliga aylantiradi. Oraliq yo‘l esa har jihatdan maqbul va to‘g‘ridir, zero fikr hirs va nafsni qanoat qamchisi bilan savalab, insonning insonligini himoya qiladi va har qanday sharoitda insonni Tangri bilan bog‘lab turadi. Hazrati Naqshband buyuradilar: “O‘z nafslaringizni yomonlab, tahqir etib turing, chunki kimki Haq subhonahu inoyati birla o‘z nafsini yomon deb tanigan bo‘lsa, bu amal uning uchun osondur”, ya’ni faqirlik martabasini egallashning birinchi sharti nafsni badnom etish va har lahzada “tabiiy vujudni kafolatlab turish”, Haqning isbotiga intilib, iymonni mustahkamlab boorish. Chunki Haq subhonahuning nomi xotiradan ko‘tarilgan zahoti shaytoni lain va shaytoniy nafs qutqusi uning o‘rnini egallaydi.<sup>2</sup> [2.97]

Din, tasavvuf, falsafa ilmlarini inson ruhiyati, ehtiyojlari nuqtai nazaridan o‘rgangan Imom G‘azzoliy “Kimyoi saodat” asarida alohida “Uzlat degan bob ajratib, bu hodisaning olti xil foydasi va olti xil zararini ko‘rsatib o‘tadi. Avvalo shuki, G‘azzoliy fikricha, uzlat mutafakkir insonlar uchun zaruriy ehtiyojdir, inson bot-bot yolg‘iz bo‘lishni, o‘z-o‘zi bilan yakka qolib, fikr daryosiga cho‘mishni, dunyo tashvishlaridan vaqtincha forig‘ bo‘lgani holda, tafakkuriy idrokka berilishni xohlaydi. Iloh ishqida yongan kishilar uchun bu intilish yana ham kuchliroq. Ularning ruhi muttasil yolg‘izlikni qo‘msaydi, chunki atrofdagi voqealar ularning bir nuqtaga yo‘naltirilgan fikrini chalg‘itadi.

<sup>1</sup> Odiljon Avaznazarov. Navoiy timsollari so‘zligi. –Toshkent: Spectrum Media Group, 2024. –227 b.

<sup>2</sup> Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. –Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti,1996. –97 b.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA.** Imom G‘azzoliy fikriga ko‘ra, Uzlatning foydalari quyidagilardan iborat: Avvalo foyda ulki, Uzlat sababidan bisyor gunohlardan xalos bo‘lur va to‘rt gunohdurki, xalq‘a aralashsa undan xalos bo‘lolmas. Zero eng ulug‘ ibodat “fikr va zikr ibodati”dur. Bunda kishi nainki dunyodan, balki o‘zidan ham bexabar bo‘lib, Haq taolo yodiga beriladi. Chunki Haq taolodan boshqa har qanday narsa Haq taolodan boshqa bilan mashg‘uldir.

Ikkinchi foyda ulki, kishi Uzlat tufayli “ko‘p iztiroblardan qutuladi. amri ma‘ruf va nahiy munkarki, agar xalqni gunohdan man‘ qilmasa, osiy va fosiq bo‘lur. Agar man‘ qilsa, xusumat paydo bo‘lur. Riyo va nifoq odamlarg‘a aralashgandan bo‘lur. Agar odamlarg‘a madoro va muloyimatlik qilmasa, ko‘ngli og‘rir va agar qilsa riyodan xoli qolish mushkuldur. Agar ikki dushman orasida har birini xohishiga qarab so‘zlasa, yolg‘onchilik bo‘lur. Agar birining so‘zini rost desa, ikkinchisining dushmanligidan xalos bo‘lmas.

Uchinchi foyda ulki, hech bir shaqar fitna va xusumatdan xoli bo‘lmas. Kishi go‘shanishin bo‘lsa fitna va xusumatdan xoli bo‘lur.

To‘rtinchi foyda ulki, xalqning sharridan (yomonligidan) emin bo‘lur va xalq orasida bo‘lsa, g‘iybat va badgumonlikdan va shubhali taomdan xoli bo‘lmas.

Beshinchi foyda ulki, odamlarning tama‘sidan va ham odamlar buning ta‘masidan xoli bo‘lurlar. Bas, ta‘madin nechand ranj va ma‘siyat paydo bo‘lur. Chunonchi kishi axli dunyoni ko‘rsa, bunda ham boylik-dunyo hirsni paydo bo‘larki, tama‘ hirsning tobe‘idur. Xorlik esa ta‘madan paydo bo‘lg‘usidur.

Oltinchi foyda ulki, ahmoq va johillarni ko‘rmakdan, tabiatingizga og‘irlik va malollik yetadurg‘on toifalarning diydoridan xalos bo‘lursizlar.<sup>3</sup>[3.190]

Ammo Uzlatning ofatlari ham bor, chunonchi, xalq bilan muomala qilinmasa, dunyo va din ishlari amalga oshmaydi. Uzlat esa muomala va aloqani yo‘q qiladi. Shu qatorda Imom G‘azzoliy Uzlatning olti zararini ham sanaydi.

**XULOSA.** Ma‘lum bo‘ladiki, Imom G‘azzoliy Bahouddin Naqshbanddan salkam uch asr oldin xilvat va anjuman masalalarini muhokama qilib ko‘rgan va uning foydasi qayerda, zarurati va zarari nimadan iborat ekanligini tahlil etgan ekan. G‘azzoliy bu ikki qarama-qarshi ruhiy ehtiyojni birlashtiradigan odamni orzu qiladi, ruhan Haq bilan va jisman xalq bilan bo‘lgan kishini buyuklarning buyugi hisoblaydi. Olim nazarida xazrati Muhammadda “nubuvvat quvvati shu darajaga yetdiki, tan bilan xalq orasida edi, ammo ruhan Haq bilan birga edi”. Bu kabi g‘oya buyuk mutafakkir Alisher navoiy ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Navoiy ijodining muhim qismi hisoblangan g‘azallariga nazar tashlanganda ham xilvat motivi va yuqoridagi g‘oyaning ilgari surilganligini uchratamiz. G‘azal–

---

<sup>3</sup> Imom G‘azzoliy. Kimyoi saodat. –Toshkent: Adolat, 2005. –190 b

lirikaning nozik shakli sifatida shoir qalbidagi holatlarni, tasavvufiy kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

*Men uzlat ayladim, istab rizo yo ‘lida vasl anga,  
Ko ‘ngulni qilmadim bandi jahong ‘a, xilvat ichra men.*

Bu baytda shoir tasavvufiy ruhda, dunyo tashvishlaridan chekinib, yolg‘izlik (uzlat)ni tanlaganini aytmoqda. Uning maqsadi — Alloh rizosini qozonish, U bilan ma’naviy yaqinlik hosil qilishdir. Shoir dunyo ishlariga berilmay, qalbini bu foniy hayotga band qilmay, ruhiy poklanish va sokinlik izlaganini bildiradi. Navoiyda Xilvat- bu sevgi Makoni, lekin bu sevgi jismoniy emas, ilohiy sevgidir. G‘azallarida shoir ko‘p marotaba: “xilvat ayladim”, “uzlat tutdim”, “jahon g‘avg‘osidin qochdim” kabi iboralar orqali bu holatni badiiylashtiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Odiljon Avaznazarov. Navoiy timsollari so‘zligi. –Toshkent: Spectrum Media Group, 2024. –227 b.
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. –Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1996. –97 b.
3. Imom G‘azzoliy. Kimyoi saodat. –Toshkent: Adolat, 2005. –190 b
4. <https://kh-davron.uz/>
5. Ziyouz.com kutubxonasi